



# The problem of syntactic relations in English sentence structures: syntactic relations at the functional syntactic level

Nigora TASHLANOVA<sup>1</sup>

Tashkent University of Information Technologies

## ARTICLE INFO

### Article history:

Received October 2023

Received in revised form

15 November 2023

Accepted 25 November 2023

Available online

15 January 2024

### Keywords:

apparatuses of sentences,  
syntactic units,  
syntactic relations,  
lexico-syntactic relations.

## ABSTRACT

The article analyzed the definition of the semantics of syntactic units in sentence structures of the English language, as well as the definition of syntactic units, syntactic links, and component composition involved in sentence structures, from the functional-syntactic point of view of unsolved problems of modern syntactic. The study used the experimental method, the methods of the distributive component, and parsing. The role and significance of syntactic relations in determining the valency of components at the syntactic level are shown. Based on component models, the differential syntactic signs of components and ways of their expression are explained.

2181-1415/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss10/S-pp168-176>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

# Ingliz tili gap qurilmalarida sintaktik aloqalar muammosi: funksional sintaktik sathda sintaktik aloqalar

## ANNOTATSIYA

### Kalit so'zlar:

gap qurilmalari,  
sintaktik birliklar,  
sintaktik aloqalar,  
leksik sintaktik munosabat.

Maqolada, ingliz tili gap qurilmalarida sintaktik birliklarning semantikasini aniqlash, shu bilan birga gap qurilmasida ishtirok etgan sintaktik birliklarni, sintaktik aloqalarni va komponent tarkibini aniqlash, hozirgi zamon sintaktikasida yechilmagan muammolar funksional sintaktik nuqtai nazardan tahlil qilindi. Tadqiqotda eksperiment metodi, distributiv komponent va sintaksemlar tahlil metodlari qo'llanildi. Sintaktik sathda komponentlarning valentligini aniqlashda sintaktik aloqalarning roli va ahamiyati ko'rsatilib, komponentlarning differensial sintaktik belgilarini hamda ularning ifodalanish usullarini komponent modellar asosida yoritib berildi.

<sup>1</sup> Lecturer, Fergana branch, Tashkent University of Information Technologies. E-mail: nigoratashlanova7@gmail.com

# Проблема синтаксических отношений в структурах английских предложений: синтаксические отношения на функционально-синтаксическом уровне

## АННОТАЦИЯ

### Ключевые слова:

аппараты предложений, синтаксические единицы, синтаксические отношения, лексико-синтаксические отношения.

В статье было проанализировано определение семантики синтаксических единиц в структурах предложений английского языка, а также определение синтаксических единиц, синтаксических связей и компонентного состава, участвующих в структурах предложений, с функционально-синтаксической точки зрения нерешенных проблем современной синтактики. В исследовании использовались экспериментальный метод, методы дистрибутивного компонента и синтаксического анализа. Показана роль и значение синтаксических отношений в определении валентности компонентов на синтаксическом уровне. На основе компонентных моделей объяснены дифференциальные синтаксические знаки компонентов и способы их выражения.

## KIRISH

Hozirgi zamon tilshunosligida ayrim tilshunoslar sintaktik aloqalar va sintaktik munosabatlarni farqlamasdan, ularni sinonim tarzda, aralash qo'llaydilar. Rus tilshunoslarining ayrimlari "moslashuv", "boshqaruv", "bitishuv" so'z birliklarini gap tarkibida sintaktik aloqa deb qaraydi [1; 5–6-betlar]. Boshqa tilshunoslar esa moslashuv, bitishuv, boshqaruvlarni faqat so'z birliklari tarkibida qo'llaydilar [2; 30–31-betlar].

Ayrim grammatikalarda so'z birikmasi komponentlari bir-biri bilan so'z formalari, yordamchi so'zlar, intonatsiya, so'z tartibi yordamida birikadi. Ular moslashuv, boshqaruv, bitishuv kabilar yordamida bog'lanadi [3; 290-bet]. Hozirgi zamon o'zbek tili grammatikasida sintaktik aloqalar va sintaktik munosabatlar bir-biridan farqlanishi jarayoniga to'xtalib, shunday ta'kidlanadi: "Sintaktik aloqa so'z birikmasidagi va gapdagi so'zlarning hamda nutqdagi gaplarning o'zaro grammatik bog'lanishini bildiradi. Sintaktik munosabat esa so'z birikmasi va gapdagi so'zlarning hamda nutqdagi gaplarning bir-biriga nisbatan qanday grammatik ma'no va funksiyada qo'llanishini bildiradi [4; 5–6-betlar]." Ushbu fikrning asosiy mazmuniga e'tibor qaratilsa, gap qurilmasida undalma va kirish so'zlar qatnashganda, asosiy gapning biror komponenti bilan sintaktik aloqaga kirishmasa ham, muayyan sintaktik munosabatni bildirish uchun xizmat qiladi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Ishda ingliz tili gap qurilmalarida sintaktik birliklarning funksional sintaktik nuqtai nazaridan, shuningdek, komponentlar va sintaksemlarga ajratib tahlil qilishda A.M. Muxin, L.I. Yurevich, U.U. Usmanov, Z.Dj. Djabborov, R.Ye. Kichmov, Sh.S. Ashurov, D.T. Kubaysinova, Ye.B. Aristova, M.R. Jalilbekova, M.S. Kayumova va boshqalarning ilmiy tadqiqotlari kata hissa qo'shgan. Bu borada A. G'ulomov, M. Asqarovlarning fikricha, "Komponentlar orasidagi sintaktik aloqa ikki xil bo'ladi: predikativ aloqa va predikativ bo'lmagan aloqa. Predikativ aloqa natijasida gap hosil bo'ladi, predikativ bo'lmagan aloqa

natijasida soʻz birikmasi hosil boʻladi.” [5; 10-bet] Uning fikricha, gap faqat ega va kesimdan tashkil topgan boʻlib, ular oʻzaro predikativ sintaktik aloqa asosida bogʻlanadi degan fikriga qoʻshilish mumkin, ammo ega va kesimdan tashqari boshqa sintaktik birliklar yoki komponentlar qanday sintaktik aloqalar asosida gap qurilmasida ishtirok etishi nazardan chetda qolmoqda. Ushbu ilmiy asarda gap qurilmasida ega va kesimdan tashqari sintaktik birliklarni soʻz birikmalar sathida qaralib, ularni “...soʻzlarning atributiv munosabati, obʻyektli munosabati, festiv munosabati” deb qaraladi [6; 9–11-betlar].

Rus tili misolida V.A. Fyodorov sintaktik aloqalar asosan moslashuv, bitishuv va boshqaruv hisoblanadi, ularni leksik sathda alohida qarash hamda sintaktik sathda alohida talqin qilish va ushbu til sathlarini bir- biridan farqlashni aytadi [6; 9–11-betlar]. M.F. Chikurovaning taʼkidlashicha, sintaktik aloqalarni gap qurilmasida logik(mantiqiy) semantik jihatdan talqin qilishni, yaʼni gapning asosiy qurilmasi predikativlik aloqa bilan bogʻlansa, qolgan sintaktik birliklar esa tobe komponentlar hisoblanadi [7; 138–139-betlar]. Yuqorida qayd etilgan faktlar guvohlik berishicha, sintaktik aloqalar va sintaktik munosabatlar tilshunoslikda bahstlab muammolardan biridir. Ushbu masalalarni tadqiq etishda asoslanmagan har-xil fikrlarning kelib chiqishiga asosiy sabab til sathlarini bir-biridan, yaʼni leksik sathni soʻz birikmalar sathidan, morfologik sathni sintaktik sathdan farqlamaslik natijasidir.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Maʼlumki, anʼanaviy grammatikalarda gapning sintaktik tahlili bosh va ikkinchi darajali boʻlaklarga ajratib tahlil qilinmoqda. Bunda gap tahlili boʻlaklarga ajratib tahlil qilinganda sintaktik aloqalar tilga olinmaydi hamda sintaktik ajraladigan va ajralmaydigan birliklar farqlanmaydi. Gap boʻlaklari tushunchasida elementar sintaktik birliklar hodisasiga ham eʼtibor berilmaydi.

Ayrim tilshunoslarning fikricha, anʼanaviy grammatikalarda sintaktik aloqalarni soʻz birikmalari sathida qarab, ular predikativ va predikativ boʻlmagan aloqalarga boʻladi [8; 47–48-betlar]. Predikativ va predikativ boʻlmagan soʻz birliklari grammatik jihatdan bajaradigan funksiyalariga qarab farqlanishiga asosan predikativ soʻz birikmasi ikki grammatik funksiyani gapda ifodalaydi, yaʼni predikativlikni va modellikni. Nopredikativ soʻz birikmalarida esa moslashuv, boshqaruv va bitishuv aloqalari ishlatiladi. Bu masala ham anchagina bahstlabdir [9; 22–23-betlar]. Mazkur ishda gap tarkibida kelgan komponentlarning oʻzaro sintaktik aloqalarini modellashtirish usuli, yaʼni yunksion modellar yordamida amalga oshiriladi. Yunksion model (lotin tilidan junrio soʻzidan olingan boʻlib, u bogʻlanish, aloqa maʼnolarini ifodalaydi) [10; 68–69-betlar, 11; 76–99-betlar] gorizontaal yoʻnalishda tuzilib, gap tarkibidagi komponentlarning real distributsiyasini, bir-biriga bogʻliq munosabatlarini ifodalaydi. Ushbu ishda A.M. Muxin va qator dissertatsiya ishlarida keng qoʻllanilib kelinayotgan sintaktik aloqalar haqida toʻxtalib, ularning gap tarkibida ishtirok etgan sintaktik birliklarni oʻzaro sintaktik aloqalarini koʻrgazmali ravishda yunksion modeli yordamida ifodalandi.

### **TAHLILLAR VA NATIJALAR**

A.M. Muxin oʻzining “struktura predlojeniy i ix modeli” monografiyasida yadro predikativ, subbordinativ, koordinativ, nolga teng predikativ, antroduktiv, yadro boʻlmagan predikativ, appozitiv aloqalarini aniqlaydi.

1. Yadro predikativ aloqaning muhim xususiyatlari asosan ikki hodisa bilan chambarchas bogʻliqdir. Maʼlumki, predikativlik deganda, ega va kesimning oʻzaro munosabati asosida hosil boʻladigan gap mundarijasining real voqelikka boʻlgan


munosabatini til vositasi bilan ifodalanishi tushuniladi. Yadro predikativ aloqaning boshqa sintaktik aloqalardan farqi shundaki, u boshqa sintaktik aloqalarga tobe bo'lmagan holda, o'zi mustaqil tugal fikrni anglatuvchi gapni oladi, undan tashqari, u teng huquqqa ega bo'lgan ikki yadro komponentini o'zaro bog'laydi. Shuning uchun ham yadro predikativ aloqa yunksion modellarda ikki o'zaro teng yadro komponentlarni uzviy bog'lagani tufayli, uni ifodalashda ikki tomonga yo'naltirilgan va ikki tomonlama ko'rsatkichga ega bo'lgan belgi yordamida beriladi (  $\longleftrightarrow$  ).

I am a student.

He works.

He is 22.

Ushbu gaplardagi ega va kesim o'rtasidagi sintaktik aloqalardan yadro predikativ aloqani yunksion modelda quyidagicha ifodalash mumkin:



**1-rasm. Yunksion model**

Shtrix chiziqlar mustaqil ma'noga ega bo'lgan sintaktik birlikni ifodalaydi. Yadro predikativ aloqa gapning asosiy qurilmasini tashkil etuvchi komponentlar o'rtasida sodir bo'ladi. Mana shunday holatlar yadro predikativ aloqani boshqa sintaktik aloqalardan farqlaydigan asosiy xususiyat hisoblanadi.


2. Subordinativ aloqa asosan gap qurilmasida hokim komponentga tobe bo'lgan sintaktik birliklarni aniqlashga imkon beradi. Tobe unsurlarning gaplardagi subordinativ aloqasi xususida V.N. Frensiz "...subordinativ yoki modifikatsion birikmalar", – degan fikrni bildiradi [12; 312-bet].

Subordinativ aloqada bo'lgan birikmada shu birikmaning vazifasi bevosita ishtirokchilardan bittasining vazifasi bilan bog'liq bo'ladi. O'z-o'zidan ma'lumki, subordinativ aloqa bilan gap tarkibiga kirgan sintaktik birliklar tobe unsurlar bo'lib, ular gapning asosiy qurilishini tashkil qila olmaydi. Sh.S.Ashurovning ta'kidlashicha, "Subordinativ aloqa so'z birikmalari tarkibida hokim va tobe komponentni bir-biridan farqlashga xizmat qiladi" [13; 39-bet].

Subordinativ aloqa yunksion modelda tobe elementni hokim elementga yo'naltirilgan bir chiziq ko'rsatkichli ( $\leftarrow$  yoki  $\rightarrow$ ) belgisi bilan belgilanadi. Gap qurilmasida tobe komponent egaga, kesimga hamda tobe komponentlarga ham tobe bo'lib kelishi mumkin:

My brother works at a plant.

Mazkur gapda "my" gapning egasiga tobe bo'lsa, "at a plant" esa kesimga tobedir:




**2-rasm. Yunksion model**


Subordinativ aloqa sodda yig'iq gaplarni sodda yoyiq gaplarga aylantirishga xizmat qiladi.

3. Koordinativ aloqaning boshqa sintaktik aloqalardan yunksion modeldagi farqi shundaki, unda gap bo'laklari ko'rsatmalari yordamida yo'naltirilmaydi va komponentlar bir-biriga qarama-qarshi qo'yilmaydi [14; 148-bet]. Demak koordinativ aloqaning asosiy vazifasi bir xil differensial sintaktik belgiga ega bo'lgan, ya'ni uyushib kelgan komponentlarni bir-biri bilan teng bog'lashdan iboratdir. Demak, uyushiq bo'laklar gapda qanday sintaktik funksiyada kelishidan qat'i nazar, ular sintaktik jihatdan teng bo'ladi. Bular boshqa bir komponent bilan bog'lanishda tenglik saqlaydi, ya'ni yo ikkalasi boshqa bir bo'lakka tobe yo boshqa bir bo'lak uyushiq bo'laklarga tobe bo'ladi. Ularning qanday sintaktik birlik bilan ifodalanishiga qarab grammatik shakllari bir xil bo'ladi [15; 54-bet]. Ammo mazkur monografik ishda uyushiq bo'laklarning o'zaro sintaktik aloqalari haqida batafsil fikr bildirilmaydi.


Uyushiq bo'laklar gap qurilmasida ega, kesim va ikkinchi darajali bo'laklar o'rnida kelishi mumkin. Yunksion modelda koordinativ aloqa v belgi bilan belgilanadi:



**3-rasm. Yunksion model**



**4-rasm. Yunksion model**



**5-rasm. Yunksion model**

Keltirilgan misollardan ma'lumki uyushiq bo'laklar o'zaro koordinativ aloqa yordamida bog'lanib, (1,2) yadro predikativ aloqa asosida gap qurilmasida ishtirok etmoqda, uchinchi gapda esa uyushiq bo'laklar subordinativ aloqa yordamida gapda qatnashmoqda. Mazkur gaplardagi uyushiq bo'laklar teng huquqliligini isbotlashda quyidagicha tushirib qoldirish transformatsiya usuli bilan aniqlash mumkin:

John and James are students → John is a student → James is a student;

John can read and write → John can read → John can write;


John goes to Tashkent and Samarkand → John goes to Tashkent → John goes to Samarkand.

4. Yadro bo'lmagan predikativ aloqa. Ushbu aloqa bilan bog'langan sintaktik birlik ham gap qurilmasida ikki sintaktik aloqa yordamida namoyon bo'ladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, yadro bo'lmagan predikativ aloqa yadro predikativ aloqaga qarama-qarshi qo'yilib, boshqa sintaktik aloqalarni subordinativ, koordinativ, appozitiv aloqalar qatoriga qo'yish mumkin, ammo ular ham ma'lum darajada farqlanadi. Shuning uchun ham O'.U.Usmonovning ta'kidlashicha, yadro bo'lmagan predikativ aloqadan shu bilan farq qiladiki, "...subordinativ aloqa bir tomonlama hokim komponentga tobelikni ifodalasa, yadro bo'lmagan predikativ aloqa esa ikki komponentga ham bir xil yo'naltirilganligidadir" [16; 53-bet]. Yunksion modellarda yadro bo'lmagan aloqa bir chiziq, ikki tomonli ko'rsatkichlar ( $\leftrightarrow$ ) bilan beriladi.

Masalan: 1) I asked him to come in

2) I was asked to come in


Bunda sintaktik qurilmalar, (I) him to come in, (2) I... to come in ingliz tili amaliy va nazariy grammatikalarida "ob'yektiv infinitiv oborot", "sub'yektiv infinitiv oborot" deb atalib kelinmoqda [17; 39-bet]. Ammo ushbu ob'yektiv infinitiv qurilmalari o'rtasida yaqindan aloqa mavjud deb har ikkalasiga gapning bir bo'lagi sifatida qaralib, ularni murakkab to'ldiruvchi vazifasini bajaradi deb talqin qilinib kelingan [18; 1-123-betlar]. Bunday talqin qilish bahstlab masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Chunki I asked him to come in qurilmasida ikkinchi (asked) va ulangan (him) komponentlar o'rtasida qanday sintaktik aloqa bor hamda uchinchi (him) va to'rtinchi (to come in) komponentlar o'zaro qanday sintaktik aloqa bilan bog'lanadi, degan savol tug'iladi. Ushbu jumboqning yechimini yunksion modelga solinganda topish mumkin, ya'ni I bilan asked o'zaro yadro predikativ aloqa bilan bog'lanadi, him esa asked bilan subordinativ aloqa asosida bog'lansa, him bilan to come in yadro bo'lmagan predikativ aloqa yordamida bog'langan. Mazkur gap qurilmasida him sintaktik birlik ikki sintaktik aloqa bazasida ishtirok etishining guvohi bo'lamiz:



### 6-rasm. Yunksion model

Ikkinchi gapda ham I was asked to come in qurilmasida an'anaviy grammatikalarda ajralmas birikma hisoblanib, ularni murakkab ega deb talqin qilinadi. Ammo, bunday fikr ham lisoniy nazardan to'liq ishonch hosil qilish qiyin. Hatto yuqorida

qayd etilgan manbada ikki xil talqin qilinadi, ya'ni was asked to come in gapda qo'shma fe'l kesim deyiladi. Tildagi bir hodisani ikki xil talqin qilish haqiqatdan uzoqlashtiradi. Bizning fikrimizcha I elementi was asked bilan yadro predikativ aloqa bilan bog'lanadi, I birlik to come in bilan yadro bo'lmagan predikativ aloqa asosida bog'lanadi. Demak ushbu gapda I elementi ikki sintaktik aloqa asosida gap qurilmasida qatnashadi. Yunksion modelda quyidagicha izohlash mumkin:




**7-rasm. Yunksion model**

Bu sintaktik aloqa haqida atroflicha fikr yuritilgan.

5. Appozitiv aloqani A.M.Muxin shunday ta'riflaydi: "...izoxlovchi nafaqat boshqa appozitiv bilan bevosita sintaktik aloqaga kirishadi, balki o'sha sintaktik aloqa orqali bilvosita gapdagi boshqa komponent bilan aloqaga kirishadi."


Appozitiv aloqa asosida bog'langan komponent yadro komponent bo'lmasligi mumkin, ya'ni gapning asosiy qurilmasini tashkil etishda ishtirok etmasligi mumkin. Appozitiv aloqa bilan bog'langan sintaktik birlik gapning egasiga nisbatan yoki ikkinchi darajali bo'laklarga nisbatan bog'lanishi mumkin. Yunksion modelda appozitiv aloqa (—←) bir chiziq o'rtasida ko'rsatkich bilan belgilash mumkin:



**8-rasm. Yunksion model**


6. Nolga teng predikativ aloqa. Ma'lumki, tilda bir tarkibdan tashkil topgan gaplar uchraydi, bunday gaplarda uch belgi, ya'ni predikativlik, modallik va prosodiya mavjuddir, ya'ni bir tarkibli gaplarda ega yoki kesimni aniqlab bo'lmaydi:

Ugh! God! yoki bir tarkibli yoyiq gaplar Holy God! Good God! bunday gaplarni yunksion modellarda ifodalashda nolga teng predikativ aloqani (1) belgi bilan ifodalash mumkin:



**9-rasm. Yunksion model**

7. Introduktiv aloqa deganda gap qurilmasida gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklari bilan sintaktik va intonatsion jihatdan bog'lanmagan sintaktik birliklar ushbu sintaktik aloqa vositasi bilan beriladi. Uni yunksion modelda (▼) belgi bilan belgilanadi:



### 10-rasm. Yunksion model

Yuqorida qayd etilgan sintaktik sathdagi aloqalar asosida valentlik nazariyasi paydo bo'ladi. Jahon tilshunosligida valentlik nazariyasi tilning fonologik, morfologik, leksik, semantik va sintaktik sathlarida turlicha yondashilgan. Bular haqida keyingi ishlarda fikr yuritamiz.

#### XULOSALAR

Ma'lum bo'lishicha ko'pgina an'anaviy nazariy va amaliy grammatikalarda "moslashuv", "bitishuv" va "boshqaruv" larni sintaktik aloqalar deb qarab kelingan. Ammo ushbu aloqalar asosan gap qurilmasida ishtirok etgan sintaktik birliklarning o'zaro aloqalari haqida emas, so'z birikmalar sathida qaraladi. Undan tashqari moslashuv, bitishuv, boshqaruvlar bilan bir qatorda sintaktik munosabatlar atamasini ham parallel ishlatadilar. Til materialining tahlil natijalariga tayanib, moslashuv asosan tillarning morfologik sathida namoyon bo'ladi. Bitishuv haqida ham sintaktik sathda qaralganda, uning sintaktik aloqa emasligini guvohi bo'ldik. Bunga berilgan tariflarda so'z birikmalar sathida ergash yoki tobe so'zning bosh yoki hokim so'z bilan grammatik vositasiz, faqat o'rnashuv o'rniga ko'ra birikishiga aytiladi. Yoki bitishuv tobe aloqa bo'lib, tobe so'z so'z shakllari o'zgartirmasdan hokim so'zga o'zining tobeligini leksik ma'no jihatidan ifodalaydi. Sintaktik aloqalar masalasi tilshunoslar o'rtasida anchagina bahstlab bo'lganligi tufayli sintaksisni formal sintaksis va funksional sintaksisga ajratadi. Funksional sintaksis doirasida gap qurilmasining tahlilida sintaktik aloqalardan yadro predikativ, subordinativ, koordinativ, yadro bo'lmagan bo'ladi. Yadro predikativ aloqani boshqa sintaktik aloqalardan farqi shundaki, u boshqa sintaktik aloqalarga tobe bo'lmasdan, o'zi mustaqil tugal fikrni anglatuvchi teng huquqqa ega bo'lgan ikki yadro komponentni o'zaro bog'laydi. Ya'ni yadro predikativ aloqa gapning asosiy qurilmasini hosil qiladi. Qolgan sintaktik aloqalar esa yadro bo'lmagan, tobe komponentlarni hokim komponentlarga bog'laydigan sintaktik aloqa hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Фёдоров.А.К. Трудные вопросы синтаксиса. Москва: Просвещение, 1972. 5-6с.
2. Золотова.Г.А. Очерк функционального синтаксиса русского язмка. Москва: Наука, 1973. 30-31с.
3. Бўронов Ж, Ҳалимов Ў, Исматуллаев Х. English Grammar, инглиз тили грамматикаси. Тошкент: Ўқитувчи, 1974. 290 б.
4. Ўзбек тили грамматикаси, II том, Синтаксис, Тошкент: фан, 1976. 5-6 б.
5. Фуломов А, Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Тошкент: Ўқитувчи, 1987. 10-б.



6. Фёдоров В.А. Синтаксическая и лексическая сочитаемость слов/ВК: значения в язмке и речи. Волгоград, Волгоградский пединститут, 1975. 9-11с.
7. Чикурова М.Ф. Основные синтаксические связи и их логико-семантические интерпретация// В сб: Проблемм лексический и грамматический семантики английского и франсузкого язмков, Туля: Тульшийгос. Пединститут. А.Н.Толстого, 1976. 138-139-с.
8. Смирницкий А.Н. Синтаксис английского языка. Москва: Лит. на иностр.яз. 1957. 47-48.
9. Нумонов А. Тилни системали ўрганиш ва синтаксеманинг айрим мунозарали масалалари// Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент. 1988. 22-23-б.
10. Мухин А.М. Модели внутренних синтаксических связей предложений// Вопросы1 язмокзнания. Москва. 1970. 68-69-с.
11. Мухин А.М. Структура предложений и их модели. Ленинград отд: Наука. 1968. 76-99-с.
12. Frensis W.N. The structure of American English. New York: Willy. 1988. 312-p.
13. Ашуров Ш.С. Инглиз ва ўзбек тилларида кесим типологияси. Филол.фан. номзод. Диссертация. Самарқанд: 2007. 39-б
14. Харитоновна Т.С. Группа определителей в современном английском языке. (Синтагматический аспект): Диссертация. Канд.филол.наук. Ленинград: ЛОИЯ, 1971. 148.
15. Ёров Б.А. Уюшиқ кесим: унинг зотий (субстанциал) табиати ва гапдаги мавқеи. Фил.қан.номзод. диссертация. Тошкент. 2001. 54-б.
16. Усмонов У.У. Методические рекомендации по теории синтаксемного анализа нулевых элементов в структуре неполных предложений в английском диалогической речи. Самарканд: Сам ГПИ. 1990. 53-с.
17. Қаямова М.С. Инглиз ва ўзбек тилларида негативлик категориясининг синтаксем тадқиқи. Филол. Фан номзод. Диссертация, Самарқанд, 2010. 39-б.
18. Djurayevna T. N. Semantic and structural features of the vocabulary of color designation in english, uzbek and russian languages //Global Book Publishing Services. – 2022. – С. 01-123.